

MAKTAB MUHITIDA IJOBIY INTIZOM YONDASHUVI: JAZODAN KO‘RA ONGLI TANLOV

Mirzakarimova Zarnigor Nematjonovna

Annotatsiya; *Ushbu Maqolada an’anaviy jazoga asoslangan yondashuv o‘rniga ijobiy intizom tushunchasi va uning afzalliklari tahlil qilingan. Ijobiy intizom o‘quvchilarning xatti-harakatini boshqarishda tashqi nazoratdan ko‘ra ichki ong, mas’uliyat va hamkorlik asosida ishlovchi pedagogik yondashuvdir. Maktab muhitida ijobiy muloqot, hurmat, tanlov erkinligi va o‘zini anglash imkoniyatlari orqali shaxsiy intizom shakllanishi, bu esa o‘quvchining ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy kamoloti uchun muhim omil ekani asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar; *ijobiy intizom, ongli tanlov, o‘quvchi faolligi, psixologik xavfsizlik, ichki nazorat, maktab muhiti, pedagogik yondashuv.*

Аннотация; *В этой статье эта статья проанализировала положительный разборщик и ее преимущества вместо традиционного подхода. Позитивная дисциплина - это педагогический подход, который работает на основе внутреннего сознания, ответственности, а не внешнего контроля при поведении студентов. Школьная среда основана на позитивном общении, уважении, формировании личной дисциплины посредством возможностей и самосознания, что является важным фактором для социальной адаптации и духовной зрелости.*

Ключевые слова; *Позитивная дисциплина, сознательный выбор, педиатрическая безопасность, психологическая безопасность, внутренний контроль, школьная среда, педагогический подход*

Bugungi ta’lim sharoitida bolalarga nisbatan qo‘llaniladigan jazoviy choralar pedagogik va psixologik jihatdan o‘zini oqlamayapti. An’anaviy yondashuvlar bolada qo‘rquv, ishonchsizlik, norozilik, ichki qarshilik uyg‘otadi. Ijobiy intizom esa bolani tarbiyalash emas, uni tushunish, o‘z xatti-harakatiga ongli baho berishga o‘rgatish, tanlov qilishga imkon yaratish orqali natijaga erishishni ko‘zlaydi. Bu yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning muhim elementi hisoblanadi.

Ijobiy intizom bu o‘quvchining o‘zini anglashiga, qarorlar qabul qilishiga, javobgarlikni his qilishiga va xatti-harakatining oqibatini tushunib yetishiga yordam beradigan yondashuvdir. Unda jazodan voz kechiladi, chunki jazo shaxsiy rivojlanishga emas, xatti-harakatni vaqtincha bostirishga xizmat qiladi. Ijobiy intizom bolani qo‘llab-quvvatlash, sabr bilan tushuntirish, suhbat, empatiya va muloqot orqali ijtimoiy normalarga moslashtirishni ko‘zlaydi

Afzalliklari

Bu yondashuv bolada ichki intizomni rivojlantiradi. O‘quvchi o‘z harakati uchun javobgarlikni his qiladi. O‘qituvchi bilan o‘zaro hurmatga asoslangan aloqada bo‘ladi. Dars

jarayonida o‘zini erkin tutadi, fikrini aytishdan cho‘chimaydi. Sinfdagi umumiy muhit sog‘lom bo‘ladi, nizolar kamayadi. O‘quvchi muloqot madaniyatini o‘zlashtiradi, tanqidni to‘g‘ri qabul qilishni o‘rganadi.

Amaliy strategiyalar.

Ijobiy intizomni joriy etish uchun avvalo sinf qoidalari o‘quvchilar bilan birgalikda ishlab chiqiladi. O‘qituvchi bu qoidalarni tushuntiradi, ularning mazmunini muhokama qiladi. Muayyan holat yuzaga kelganda jazolash emas, suhbat o‘tkazish orqali xatti-harakat sabablarini aniqlashga urg‘u beriladi. O‘quvchining holatini tushunishga intilish, uni tinglash, sabr bilan yo‘l ko‘rsatish eng muhim tamoyillardandir. Rag‘batlantirish orqali o‘quvchining ijobiy harakatlari mustahkamlanadi. Refleksiya usuli orqali o‘quvchi o‘z harakatlarini anglaydi va xulosa chiqaradi

O‘qituvchining roli.

Bu jarayonda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki psixologik yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, maslahatchi, his-tuyg‘ularni tushunadigan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchi o‘qituvchining adolatli va ishonchli munosabatini his qilganida u bilan samimiy aloqaga kirishadi. Bu esa intizomiy muammolarning ildizdan oldini oladi.

XULOSA

Ijobiy intizom zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, o‘quvchi shaxsiyatini to‘laqonli shakllantirishda beqiyos rol o‘ynaydi. Jazoga asoslangan usullar qisqa muddatli va sun‘iy intizomga olib kelsa, ijobiy intizom ichki mas‘uliyat, erkinlik, ongli tanlov, axloqiy qarorlar asosida harakat qilishga o‘rgatadi. Maktabda ijobiy muhitni yaratish har bir pedagogning asosiy maqsadlaridan bo‘lishi lozim

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Taxonomy of Educational Objectives, Handbook 1: Cognitive Domain 2nd edition Edition, Benjamin S. Bloom
2. Zunnunov A. Hotamov N. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., 1992
3. Dolimov S. Ubaydullayev H. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., 1967
4. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T., 1996